

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshiboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

LEGAL CONSEQUENCES OF ANTI-COMPETITIVE PRACTICES IN PUBLIC PROCUREMENT AND TENDER BIDDING

Mahmarahimov Ikhtiyor Bakhtiyorovich,

Independent researcher of the Tashkent State University of Law

E-mail: imahmarahimov@icloud.com

Abstract. Public procurement is an integral element of the modern market economy and plays an important role in ensuring the efficient use of budget funds, creating fair competitive conditions for entrepreneurs, and preventing corruption. Therefore, any agreements that restrict competition during the procurement process are regarded as serious violations that cause economic harm and entail legal liability.

Keywords: public procurement; competition; anti-competitive agreements; economic harm; budget funds; corruption; legal liability; procurement transparency; market economy; entrepreneurs.

DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI

Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Davlat xaridlari zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas elementi bo'lib, budget mablag'laridan oqilona foydalanish, tadbirkorlar uchun adolatli raqobat sharoitini yaratish va korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois xarid jarayonida raqobatga zid har qanday kelishuvlar iqtisodiy zarar keltiruvchi hamda huquqiy javobgarlikka sabab bo'luvchi jiddiy qonunbuzarlik sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari; raqobat; raqobatga zid kelishuvlar; iqtisodiy zarar; budget mablag'lari; korrupsiya; huquqiy javobgarlik; xarid jarayonining shaffofligi; bozor iqtisodiyoti; tadbirkorlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N80>

Kirish. Davlat xaridlari zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy institutlaridan biri bo'lib, budget mablag'laridan oqilona foydalanish, tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat muhitini yaratish va korrupsion xatarlarni kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Davlat sektori ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda xarid tizimi nafaqat davlat ehtiyojlarini qondirishga, balki xususiy sektorning barqaror rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, davlat xaridlari jarayonining shaffof, adolatli va raqobatga asoslangan bo'lishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan sanaladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlat xaridlari jarayonida raqobatga qarshi xatti-harakatlar, xususan kartel kelishuvlarini tuzish, narxlarni sun'iy ravishda oshirish, bozorni bo'lib olish va tenderlarda kelishilgan ishtirok etish kabi holatlar hali ham uchrab turmoqda. Bunday huquqbuzarliklar bozorda adolatli raqobat prinsiplarini izdan chiqarib, budget mablag'larining samarasiz sarflanishiga, korrupsiya xavfining oshishiga hamda tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlari tizimiga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Statistik ma'lumotlar ham ushbu jarayonlarda qonun buzilishi holatlari yetarli darajada uchrashini tasdiqlaydi.

Mazkur xatti-harakatlarning eng xavfli jihati shundaki, ular iqtisodiy jarayonlarning tabiiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, davlat xarajatlarining oshishiga sabab bo'ladi hamda bozor mexanizmlarining buzilishiga olib keladi. Shu boisdan ham raqobatga qarshi kelishuvlar nafaqat iqtisodiy zarar yetkazuvchi omil, balki ularning ishtirokchilari uchun muayyan huquqiy javobgarlikni vujudga keltiruvchi huquqbuzarlik sifatida ham baholanadi. Amaldagi milliy qonunchilik kartel kelishuvlari va boshqa raqobatga zid harakatlarga nisbatan qat'iy cheklovlar va jazolarni nazarda tutadi. Biroq davlat xaridlari bozorining dinamikasi va korrupsion xavflarning mavjudligi ushbu boradagi huquqiy mexanizmlarni doimiy takomillashtirib borishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan ushbu ilmiy tadqiqotning maqsadi davlat xaridlari jarayonida sodir etiladigan raqobatga qarshi xatti-harakatlarning mohiyatini yoritish, ularning iqtisodiy va huquqiy oqibatlarini tahlil qilish, milliy qonunchilikdagi tartibga solish mexanizmlarini o'rganish, xalqaro tajribani solishtirish hamda O'zbekiston sharoitida ushbu sohani yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Material va metodlar. Maqola umum qabul qilingan metodlar: qiyosiy-tahliliy, qiyosiy-mantiqiy ketma-ketlik asosida yoritilgan bo'lib, unda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanilib, tender savdolarida raqobatga zid xatti-harakatlar sohasida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish muammolari ilmiy tahlil etilgan.

Muhokama va natijalar. Davlat xaridlari bu nafaqat budget mablag'larini sarflanishining eng katta sabablaridan biri, balki mamlakat iqtisodiyotida adolatli raqobatni shakllantirishi kerak bo'lgan eng muhim maydonlaridan biridir. Har yili davlat trillionlab so'mni tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olishga yo'naltirar ekan, bu jarayonning shaffof va raqobatga asoslangan bo'lishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi nuqtai nazaridan ham hayotiy zaruriyatdir.

Amaldagi statistik ma'lumotlar ham davlat xaridlarida kuzatilayotgan bo'shliqlarni va ziddiyatlarni ko'rsatadi: 2023-yilda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi va "Raqobat to'g'risida"gi qonunlar talablariga rioya etilishi bo'yicha jami 1 930 ta lot (umumiy qiymati 1 190,03 milliard so'm) tanlov va tender savdolari o'rganildi. Ushbu o'rganishlar natijasida 246 ta holatda qonun talablariga rioya qilinmagani aniqlandi.[1] Yuqoridagi sonlar yil davomida katta hajmdagi moliya oqimi mavjudligini ko'rsatadi, bunday holatlarda tender jarayonlarining shaffofligi va raqobatning teng ta'minlanishi nihoyatda muhim hisoblanadi.

Shunday bo'lsada, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada raqamlashtirilib, shaffoflik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida jahon andozalariga yaqinlashmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat xaridlari maxsus axborot portali ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilda o'tkazilgan tanlov va tender savdolari natijasida 505 milliard so'm budget mablag'i iqtisod qilingan bo'lib, tuzilgan shartnomalar soni 100 885 tani tashkil etgan. [2] Ushbu ko'rsatkichlar davlat xaridlarining elektronlashtirishga qo'yilayotgan qadamlarni va ochiq raqobat mexanizmlari joriy etilganligini isboti deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, iqtisod qilingan ushbu katta mablag'lar raqobat muhitining to'g'ri shakllanishiga bog'liq ekanligini hisobga olsak, davlat xaridlari

jarayonida raqobatga zid bitimlar hali ham jiddiy xavf tug'dirayotganini ta'kidlash zarur. Shunday ekan, davlat xaridlari sohasidagi raqobat muhitini mustahkamlash va raqobatga zid bitimlarga qarshi kurashish nafaqat iqtisodiy, balki davlat boshqaruvi sifatini oshirish nuqtai nazaridan ham dolzarb vazifadir.

Avvalo, davlat xaridlari tushunchasini to'g'ri anglash va uni qonuniy jihatdan aniq belgilab olish mavzuni chuqur tushunish uchun birinchi qadam deb hisoblaymiz. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 4- moddasida davlat xaridlari quyidagicha ta'riflanadi: "Davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni". [3]

Nazarimizda qonundagi "pulli asosda ta'minlash jarayoni" degan ta'rif juda qisqa va texnik bo'lib, davlat xaridlarining asl mohiyatini, ya'ni budjet mablag'larini eng samarali, eng sifatli va eng adolatli sarflash majburiyatini to'liq aks ettirmaydi. Aynan shu tor ta'rif tufayli ko'pincha "tekin" yoki "grant" ko'rinishidagi xaridlar nazoratdan chetda qolib, raqobatga zid bitimlarga yo'l ochib bermoqda. Agar moddaga ochiq raqobat, shaffoflik va eng iqtisodiy jihatdan foydali taklif tamoyillari asosida pulli ta'minlash jarayoni deyilsa, raqobat tushunchasi ta'rifning o'zida aks etadi, natijada davlat xaridlari sohasida kartel va bid rigging kabi qonun buzilishlarning oldini olishda kuchli huquqiy to'siq bo'lib xizmat qila oladi.

Xalqaro tajribada misol tariqasida Yevropa Ittifoqi Direktivasida davlat xaridlari tushunchasiga yuzlansak, "eng iqtisodiy jihatdan foydali taklif" (MEAT – Most Economically Advantageous Tender) tamoyili asosida amalga oshiriladi, ya'ni narx emas, balki narx-sifat nisbati birinchi o'ringa qo'yiladi. [4]

O'zbekistonda esa hali ham "eng past narx" mezoniga qattiq bog'lanib qolinganimiz sababli, ishtirokchilar o'zaro kelishib, narxni sun'iy ravishda pasaytirib yoki ko'tarib, keyin qo'shimcha shartnomalar orqali "tuzatib" olish holatlari keng tarqalgan. Davlat xaridlari amaliyotida raqobatga zid sxemalar haqidagi olimlar fikri juda dolzarb va amaliy ahamiyatga ega. Raqobat huquqi darsligi mualliflari ta'kidlaganidek, davlat xaridlari jarayonida keng tarqalgan qonunbuzarlik sxemalarini ikki asosiy turga ajratadi: [5]

- a) **Buyurtmachi (davlat organi) va tender ishtirokchisi (tadbirkor) o'rtasidagi til biriktirish, ya'ni korrupsiya ko'rinishidagi kelishuvlar.** Bunday sxemalar ko'pincha g'olibni oldindan belgilash, shartnoma shartlarini sun'iy ravishda moslashtirish yoki qo'shimcha "haq" talab qilish shaklida namoyon bo'ladi;
- b) **Tender ishtirokchilari o'rtasidagi til biriktirish, ya'ni kartel kelishuvi.** Bu sxema narxlarni sun'iy ravishda belgilash, bozorni taqsimlash yoki takliflarni muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, bu ikki tur o'rtasida farq mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha bir-biriga bog'langan: masalan, kartel kelishuvida buyurtmachi ham "sotib olinishi" mumkin, bu esa korrupsiya va kartelning gibrid shaklini hosil qiladi. Bunday holatlar iqtisodiy zarar keltirishdan tashqari, tadbirkorlar orasida ishonchsizlikni kuchaytiradi va kichik biznesni bozordan chetlatadi.

Davlat xaridlari sohasida raqobatga qarshi xatti-harakatlar (bitimlar) – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobatni cheklashga, yo'q qilishga qaratilgan har qanday kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar yoki boshqa shakldagi bitimlardir. Ushbu harakatlarning eng keng tarqalgan turlari quyidagilar:

- tender ishtirokchilari o'rtasida narxni oldindan kelishib olish (kartel kelishuvi);
- taklifni sun'iy ravishda belgilash (bid rigging);

- bozorni geografik yoki mijozlar bo'yicha taqsimlash;
- raqobatchilarni tenderdan chetlatish uchun bosim o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasi raqobatga qarshi kelishuvlarni va muvofiqlashtirilgan harakatlarni to'g'ridan-to'g'ri taqiqlaydi va ularni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topadi. Moddaning asosiy qismi quyidagicha: Tovar yoki moliya bozorida ikki va undan ortiq tarafning raqobatni cheklashga yoki iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga olib keladigan yoxud olib kelishi mumkin bo'lgan, bitta yoki bir nechta hujjatda aks ettirilgan yozma shakldagi shartlashuvi, shuningdek og'zaki shakldagi shartlashuvi raqobatga qarshi kelishuvdir. [6] Davlat xaridlari kontekstida eng xavfli va eng ko'p uchraydigan taqiqlangan harakatlar quyidagilar (19-moddaning 2-qismi):

Tovar yoki moliya bozorida ikki va undan ortiq tarafning raqobatni cheklashga yoki iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga olib keladigan yoxud olib kelishi mumkin bo'lgan, bitta yoki bir nechta hujjatda aks ettirilgan yozma shakldagi shartlashuvi, shuningdek og'zaki shakldagi shartlashuvi raqobatga qarshi kelishuvdir. Davlat xaridlari kontekstida eng xavfli va eng ko'p uchraydigan taqiqlangan harakatlar quyidagilar (19-moddaning 2-qismi):

1. Tenderlarda, auksionlarda va boshqa savdolarida narxlarni oshirish, pasaytirish yoki saqlab turish bu to'g'ridan-to'g'ri narx karteli va bid riggingni taqiqlaydi;
2. Eng yaxshi takliflarni tanlashda g'olibni oldindan belgilash → klassik "kim g'olib bo'lishi kelishilgan" holat hisoblanadi;
3. Tovar yoki moliya bozorini hududiy prinsip bo'yicha bo'lib olish → masalan, viloyatlar bo'yicha "kim qayerda tender yutadi" degan kelishuv bunga misol bo'la oladi;
4. Boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni bozorga kiritmaslik yoki chetlashtirish → raqobatchilarni "qora ro'yxat"ga kiritish hisoblanadi.

Ushbu moddaning muhim jihati shundaki, taqiqlangan harakatlar o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topiladi, ya'ni tender shartnomasi avtomatik ravishda bekor qilinadi, garchi u imzolangan bo'lsa ham. Qonunchilikda raqobatga qarshi kelishuvlarni aniqlashning eng batafsil va amaliy jihatdan eng qimmatli ro'yxati Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-sonli qarorining 4-ilovasi 8-bandida keltirilgan. [7] Ushbu band raqobat organlari va sudlar uchun "dalil topishning tayyor uslubiyoti" hisoblanadi, chunki unda raqobatga qarshi kelishuvlarning aniq belgisini sanab o'tilgan. Davlat xaridlari jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan va eng xavfli belgilardan ba'zilari quyidagilardir:

Savdo ishtirokchilari turli manzillarda joylashgan holatda ular tomonidan aynan bir manzildan va bir xil takliflarni taqdim etish → "bir kishi bir nechta kompaniya nomidan taklif bergan" holati (eng ko'p uchraydigan bid rigging);

Savdolarning ikki va undan ortiq o'zaro affillanmagan ishtirokchilarining takliflari ayni bir shaxs tomonidan berilishi → bir odam bir nechta kompaniya nomidan tenderda qatnashishi;

Savdolarning operatorlari, buyurtmachilari yoki komissiya a'zolari bilan o'zaro manfaatdor yoki affillangan shaxslarning savdolarida ishtirok etishi → ichki kelishuv;

Narxni oshirish yoki pasaytirish uchun individual iqtisodiy sabablar mavjud bo'lmagan holatda narxlarni bir vaqtda yoki ketma-ketlikda oshirish/pasaytirish → parallel narx o'zgarishi;

Shartnoma tuzish mumkin bo'lgan sharoitda ayrim xaridor yoki sotuvchilar bilan shartnoma tuzishni asossiz rad etish → bozorni taqsimlash.

Ushbu ro'yxatning ahamiyati shundaki, raqobat organi yoki sud yuqoridagi har qanday belgini aniqlasa, u raqobatga qarshi kelishuv mavjudligini taxmin qilish (prezumpsiya) huquqiga ega bo'ladi. Ya'ni ishtirokchilar endi "biz hech qanday kelishuv qilmaganmiz" deb isbotlashga majbur bo'ladi, isbotlash yukini o'z zimmasiga oladi. Bu Yevropa Ittifoqining "effect-based approach"iga o'xshash mexanizm bo'lib, O'zbekistonda ham faol qo'llanilmoqda. Bizning fikrimizcha, 256-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori bu O'zbekiston raqobat huquqidagi eng muvaffaqiyatli yangiliklardan biri hisoblanadi. U nazariy taqiqni amalda isbotlash imkoniyatiga aylantirdi. Agar oldin "og'zaki kelishuvni isbotlab bo'lmaydi" degan bahona bo'lsa, endi faqat bitta shubhali belgini aniqlashning o'zi yetarli bo'lib qoldi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari sohasida raqobatga qarshi bitimlar iqtisodiy samaradorlikka eng katta zarar yetkazadigan huquqbuzarliklardan biridir. Davlat xaridlari sohasida raqobatga qarshi bitimlarga qarshi kurashish bo'yicha eng ilg'or tajribaga ega bo'lgan ikkita huquqiy tizim – Yevropa Ittifoqi va AQSh hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida davlat xaridlari sohasidagi raqobatga zid bitimlar TFEU (Yevropa Ittifoqi faoliyatining asosiy shartnomasi) [8] va Regulation (EC) 1/2003 bilan tartibga solinadi. Bid rigging, narx karteli va bozorni taqsimlash "hard core cartel" deb tasniflanib, eng og'ir huquqbuzarliklar qatoriga kiradi. Yevropa Komissiyasi (European Commission) markazlashgan nazorat tizimini ishga tushirgan bo'lib, a'zo davlatlarning milliy raqobat organlari bilan hamkorlikda ishlaydi.

Yevropa tajribasida e'tirof etilishi lozim bo'lgan asosiy xususiyatlar mavjud. Jumladan, Leniency dasturi: kartelning birinchi murojaat qilgan ishtirokchisi 30-50% jarima imtiyozini olishidir. Bu dastur Yevropada kartellarning 60 % dan ortig'ini ochishga yordam bergan. [9]

AQShda davlat xaridlari kartellari Sherman Antitrust Act va 18 U.S.C. § 201 (bid rigging uchun alohida modda) bilan taqiqlanadi. Bid rigging to'g'ridan-to'g'ri jinoyat hisoblanadi. AQSh da ham jarima imtiyozlari mavjud va bu yengillik siyosati (leniency program) orqali amalga oshiriladi. Birinchi murojaat qilgan shaxs to'liq ozod qilinadi, qolganlari 30–50 % jarima kamaytiriladi. DOJ Antitrust Division ma'lumotlariga ko'ra, 1990-yillardan beri 90 % dan ortiq kartel ishlari leniency orqali ochilgan. [10]

Federal Procurement Data System (FPDS) va USA spending.gov platformalarida "bid screening" algoritmlari ishlaydi. Ular narxlarning anomal o'zgarishi, bir xil takliflar va geografik taqsimlash shubhali holatlar avtomatik aniqlanadi. Bu tizim yiliga 50 000 tenderlarni tahlil qiladi va 15 % da shubhali holatlarni aniqlaydi. [11]

Mazkur tadqiqot davomida mamlakatimizda sodir bo'lgan real holatlar bilan bo'lishib o'tmoqchimiz: Navoiy shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 63 million so'm qiymatidagi jihozlar (texnika va uskunalar) xaridi bo'yicha o'tkazilgan tanlov (tender) savdosida qonunbuzarlik holatlari aniqlangan. Raqobat qo'mitasining o'rganishlari shuni ko'rsatdiki, tenderda ishtirok etgan ikki korxona (aniq nomi e'lon qilinmagan, lekin ular o'rtasida yaqin aloqalar bo'lgan) to'liq va xolis baholanmagan. Xususan, takliflarni baholash mezonlari buzilgan: eng past narx yoki sifat mezonlari hisobga olinmagan, balki oldindan kelishilgan tartibda g'olib belgilangan. Tanlovda ishtirok etgan ikki subyektlar o'rtasida raqobatga zid kelishuv alomatlari bo'lgani uchun ham ish qo'zg'atilgan. Bu holat orqali O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 256-sonli qarorini buzilishini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan talablar, savdolarida narxlarni oshirish, pasaytirish yoki saqlab turish; eng yaxshi takliflarni tanlashda g'olibni oldindan belgilash buzilgan. Shuningdek, raqobatga qarshi kelishuv belgilari, masalan, savdo

ishtirokchilarining takliflari bir xil bo'lishi va o'zaro affillangan shaxslarning ishtirok etishi to'liq qo'llanilgan. Tender elektron platformada o'tkazilgan bo'lsa-da, buyurtmachi (Obodonlashtirish boshqarmasi) komissiyasi noxolis baholash o'rniga, ikki korxona o'rtasidagi kelishuvga asoslangan. Bu raqobatni cheklab, budget mablag'larini isrof qilishga olib kelgan, haqiqiy raqobatchilar chetlatilgan va narx sun'iy ravishda belgilangan. [12]

Shaxsiy tahlilimizga ko'ra, ushbu holat O'zbekistondagi amaldagi holatni yaqqol ko'rsatadi. Raqobatga zid bitimlar ko'pincha kichik miqdordagi tenderlarda sodir bo'ladi, lekin ularning umumiy zarari katta. Huquqiy oqibatlar (jarima va ko'rsatma) samarali, ammo jinoyat javobgarligi kam qo'llaniladi. Taklif qilib aytgan bo'lar edik, bunday holatlarda "leniency program" joriy etish, kelishuvni ogohlantirgan subyektga jarimani kamaytirish, buzilishlarni ochib berishni rag'batlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkin, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari sohasi iqtisodiyotning eng muhim jihatlardan biri bo'lib, budget mablag'larining katta qismi ushbu jarayon orqali sarflanmoqda. Ushbu hajm raqobat muhitining to'g'ri shakllanishiga yuqori talab qo'yadi, chunki raqobatga zid bitimlar nafaqat budget mablag'larini isrof qiladi, balki davlat institutlariga bo'lgan ishonchni ham pasaytiradi. Tadqiqot quyidagi muammolar saqlanib qolganini guvohi bo'lmoqdamiz: jarimalarning yumshoqligi, jinoyat javobgarligining deyarli qo'llanilmasligi va "leniency" dasturini amaliyotda qo'llab bilmayotganligimiz raqobatga zid bitimlarni jazolashda yetarli rag'batlantiruvchi omil bo'la olmayapti. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari sohasidagi raqobatga zid bitimlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surilmoqda:

1. Jarimalarni xo'jalik yurituvchi subyektning oldingi yilgi aylanmasining 5–10 % igacha belgilash. Bu orqali sezilarli darajada qonun buzilishini oldini olamiz, aynan bir belgilab qo'yilgan miqdor emas, balki subyektning aylanmasidan kelib chiqib jarima belgilanadi.

2. "Leniency" dasturini joriy etish – birinchi murojaat qilgan ishtirokchiga to'liq yoki katta imtiyoz berish. Bu orqali raqobatga zid kelishuvlar tez va oson ochilishi yordam bo'ladi.

3. Elektron tender platformalarida Yevropa Ittifoqining TED tizimiga o'xshash avtomatik bloklash mexanizmlarini to'liq ishga tushirish. Ushbu choralar amalda qo'llanilsa, davlat xaridlari jarayonida ochiq raqobat va shaffoflikni ta'minlash, byudjet mablag'larini samarali sarflash va jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini yanada oshirishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Davlat xaridlari nazorati. <https://raqobat.gov.uz/uz/davlat-xaridlari-nazorati/>
2. Barcha davlat xaridlari yagona portal. <https://xarid.mf.uz>
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi, <https://lex.uz/docs/-5382974>
4. Yevropa Ittifoqi Direktivasi 2014/24/EU, <https://eur-lex.europa.eu/legalcontent/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0024>
5. Raqobat huquqi darslik, mualliflar jamoasi, TDYU, 2025, 243-bet
6. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasi, <https://lex.uz/docs/-6518381>
7. Vazirlar Mahkamasining "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 256-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6907023>

8. Consolidated version of the Treaty on the Functioning of the European Union - PART THREE: UNION POLICIES AND INTERNAL ACTIONS - TITLE VII: COMMON RULES ON COMPETITION, TAXATION AND APPROXIMATION OF LAWS - Chapter 1: Rules on competition - Section 1: Rules applying to undertakings - Article 101 (ex Article 81 TEC) <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=CELEX%3A12008E101>
9. Commission Notice on Immunity from fines and reduction of fines in cartel cases (Text with EEA relevance) [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52006XC1208\(04\)](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52006XC1208(04))
10. Leniency policy <https://www.justice.gov/atr/leniency-policy>
11. An official website of the United States government <https://www.usaspending.gov/>
12. Raqobat qo'mitasi 4.3 mlrd so'mlik davlat xaridlarida qonunbuzarlik holatlarini aniqladi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/25/davlat-xaridlari/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).